

**O'RTA OSIYO XONLIKLARI DAVRIDA ISHLATILGAN
PULLAR TARIXIDAN**

Haydarova Malika Shaxriddin qizi

Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Tel: +99890 401 19 29

Email: xaydarovamalika12@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta Osiyo xonliklari davrida ishlatilgan pullar masalasi alohida tadqiq qilingan bo'lib, unda uchchala xonliklarda amalga oshirilgan pullar islohotlari, savdo-sotiq jarayonida ishlatilgan pullar davriy ketma-ketlikda o'rgalidi va taxlil qilindi.

Kalit so'zlar: Savdo-sotiq, pul, kichik tilla, tiyin, rubl, abbas shoyi, qora tanga, miqdor, giram, kumush, oltin pul.

Annotation: In this article, the issue of money used during the Central Asian khanates was separately researched, in which the money reforms implemented in the three khanates, the money used in trade and commerce were studied and analyzed in a periodic sequence.

Keywords: Trade, money, small gold, penny, ruble, Abbas silk, black coin, amount, giram, silver, gold money.

KIRISH

XVIII asrda O'rta Osiyoda o'zbek qabilalaridan chiqqan kishilar xukmronlik qilgan uchta mustaqil xonlik tarkib topdi: Qo'qon xonligi, Buxoro xonligi va Xiva xonligi. Uchchala davlatda ham (ashrafiy yoki tilla), kumush (tanga) misdan pul tayyorlandi. Qo'qon xonligida 1876 yili pul chiqarish to'xtatilgan. Xorazshoxlar va Xiva xonligi davrida o'zining xaqiqiy qiymatiga ega bo'lgan oltin, kumush va mis muomalada ishlatilgan.

Xorazmda zarb qilingan va muomalada ishlatib kelingan, o'zining haqiqiy qiymatiga ega bo'lgan pullar eramizdan oldingi II asrlardanoq ma'lum bo'lib Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosib olingungacha to'liq ishlatib kelindi. Xiva xonligida muomalada ishlatiladigan pul 3 xil atalar edi:[1:99]

1- "tilla", -oltin pul bo'lib, ikki xil shaklda va og'irlik miqdorida bo'lar edi. Birinchisi - "kichik tilla", -deb atalar va o'sha davr pul miqdorida 1 so'm 80 tiyinga teng deb belgilanar edi, ikkinchisi -"katta tilla", -deb atalib o'sha davr pul miqdorida 3 so'm 60 tiyinga teng deb belgilangan edi;

2- "tanga", -kumushdan ishlanar va "bir tanga" o'sha davr pul birligida 30 pul birligi yoki 20 tiyinga teng deb belgilanar edi. Yigirma tiyinlikni hozirgi davrda ham "bir tanga", -deb atalishi shundan qolgan;

3- “pul”, -misdan ishlanar edi. U pulga va tiyinga bo‘linardi. Kumushdan ishlangan “tanga”, “oq tanga” deb, misdan ishlangan pul “qora tanga” deb ham yuritilar edi. “Qora tanga” o‘zining qiymati jihatidan “oq tangani” 66 foiziga teng edi. Shuningdek, xonlikda “shoyi”, “abbas shoyi”, “yarim shoyi” deb nomlanadigan pul birliklari ham ishlatilgan. Ularning qiymati 10 tiyindan 40 tiyingacha o‘zgarib turgan[2].

Qo‘qon xonlari XVIII asr 70- yillariga qadar mamlakatning siyosiy mustaqilligini saqlab qolish va ichki urushlarning oldini olish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Shu bois, ichki savdo munosabatlaridagi oldi-sotdi jarayoni qo‘shni xonliklar pullari, asosan Buxoro tangalari va mol ayirboshlash orqali amalga oshirilgan. Norbo‘tabiy (1762–1798) Qo‘qon taxtiga o‘tirganidan so‘ng pul islohotini amalga oshirgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Norbo‘tabiy mis (fuls) chaqalar zarb ettirgan va bu mis chaqalar xalq orasida “qora pul” deb atalgan. Niyoz Muhammad Ho‘qandiy ma‘lumotlariga ko‘ra, Norbo‘tabiy qora fuls tangalarni joriy qilgan[3:60].

O‘sha davrda bitta shunday tangaga bir bosh qo‘y bergan. Norbo‘tabiydan so‘ng xonlik taxtiga chiqqan har bir xon o‘z nomidan yangi pul zarb ettirib, eskisini yig‘ishtirib olgan. Qo‘qon xonlari ko‘proq chaqa pul, ba‘zilari oltin tanga zarb ettirgan.

Xususan, Norbo‘tabiy mis chaqa, Olimxon (1798-1810) mis chaqa va kumush tanga, Umarxon (1810-1822) dastlab mis va kumush tanga hamda hukmronligining so‘ngi yillarida yana pul islohoti o‘tkazib, ilk bora xonlik tarixida oltin tangalarni muomalaga kiritgan. Muhammadalixon (1822-1842) o‘z hukmronligi davomida ikki marta pul islohoti o‘tkazib, mis, kumush va oltin tangalar zarb ettirgan. Shuningdek, Sheralixon (1842-1845), Xudoyorxon (1845-1858, 1862-1863, 1865-1875), Mallaxon (1858-1862)lar ham mis, kumush va oltin tangalar zarb ettirganlar. Hatto, bir necha oy hukmronlik qilgan Shohmurod oltin va kumush, Sayyid Sulton oltin, kumush va mis, Po‘latxon va Nasriddinbek esa kumush tangalar zarb ettirgan[3:61].

Buxoro kumush tangasi (Buxoro tangasi) Buxoro xonligi va Buxoro amirligida zarb etilgan kumush tangalar; Buxoro Xalq Sovet Respublikasining pul birligi. Tanga dastlab Muhammad Shayboniy nomi bilan zarb qilina boshlagan. Shayboniy dastlab tangalarining og‘irligini 1 misqol, ya‘ni 4,8 g miqdorida zarb qilgan bo‘lsa, 17-asrga kelib 4,4 giramga tushib qoldi. Ashtarxoniy sulolasi hukmronlik qilgan davrdan boshlab kumush tangalar a‘lo sifatli sof kumushdan zarb qilingan. Mang‘itlar sulolasi tangalarida Joniyar tangalariga nisbatan yozuvlar oz bo‘lgan. Kumush tangalarning o‘ng tomonida tanga zarb qilingan shaharning nomi, ya‘ni “Buxoroi Sharif zarbi” va raqamlar bilan sana ko‘rsatilgan, ters tomonida hukmdorning nomi va yana sana ko‘rsatilgan[4:78].

Subhonqulixon davrida raiyatdan 7 yillik soliqlarni birdaniga yig‘ib olish hollari bo‘lgan. Ubaydullaxon esa aholidan yig‘iladigan soliqlar miqdorini 4 baravarga

ko'paytirgan. Ubaydullaxon 1708-yili pul islohoti o'tkazib, tarkibining 35 foizini kumush tashkil etuvchi tangalar o'rniga tarkibida 9 foiz kumush bo'lgan tangalarni zarb ettiradi va uning qimmatini oldingi tangalarga teng deb belgilaydi[5:176]. Natijada pulning qadri 4 baravar kamayadi, norozilik kuchayib, do'kondor va hunarmandlar o'z mahsulotlarini sotmay qo'yadi, do'konlar yopiladi, savdo sotiq ishlariga katta zarar yetadi. Bu esa yangi pul islohotidan savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanadigan savdogarlarda katta noroziliklarga sabab bo'ladi

Xulosa qilib aytganda, xonliklar davrida pul islohoti doimiy amalga oshirilgani katta tarixiy ahamiyatga egaligi bilan farqlanib turadi. Albatta amalga oshirilgan numizmatik o'zgarishlar hammaga ham birdek maqul kelavermagan. Bu jarayonda islohot amalga oshirish albatta o'z nomini tarixga muxirlash bilan birgalikda xazinaga foyda keltirishini o'ylab qilingan desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz tadqiqot olib borayotgan ushbu davrda pul islohoti amalga oshirish masalasi mamlakatni rivoji uchun eng katta omillardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Is'hoqov, I.Xudaynazarov. Yordamchi tarixiy fanlar. o'quv qo'llanma. - Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019.
2. Xorazmiy.uz maqola Xiva pullari/ tashrif sanasi.18.11.2023
3. Sarimsokov A. A. O'rta Osiyo numizmatikasi. – Namangan, NamDU kichik bosmahonasi. 2022.
4. Ernazarov T., Kochnev B., Tangalar o'tmish darakchilari, -Toshkent., 1977.
5. D.O'roqov, A.Sharopov.O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma - Qayta nashr. - Toshkent: Akademnashr NMM, 2014. - 656 b.